



JONDOR TUMANIDAGI YANGI SHAHARCHALAR VA ULARNING IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANISHI

A.Mavlonov

BuxDPI Geografiya kafedrası dotsenti g.f.n

Sh.Normurodova

BuxDPI 1GIQ-21 guruhi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro viloyati Jondor tumanidagi yangi shaharchalar iqtisodiy-ijtimoiy geografik jihatdan o‘rganilgan. Maqolada Jondor tumanidagi yangi shaharchalarning demografik vaziyati ham tahlil qilingan. Shuningdek, tumandagi yangi shaharchalarning ayrim muammolari va hozirgi holati bayon qilingan.

Kalit so‘zlar: Jondor tumani, yangi shaharchalar, demografik vaziyat, aholi, aholi soni, qishloq joylari, manzilgoh.

Qishloq joylarini har tomonlama rivojlantirish mamlakatimiz siyosatida muhim o‘rin tutadi. Shu bois, qishloq joylarini rivojlantirish va qishloqlarda iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarni amalga oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, hukumat tomonidan ayrim qishloqlar mavqeini oshirish, ularning maqomini o‘zgartirishga alohida e‘tibor berildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 13 martda “O‘zbekiston Respublikasi ma‘muriy - hududiy tuzilishini takomillashtirishga doir



qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi qaroriga muvofiq Jondorda 8 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi.

Umuman, aholi manzilgohlariga shaharcha maqomini berish uchun unga kamida ikki ming aholi yashashi hamda aholining kamida 1/2 qismi qishloq xo'jaligi bo'lmagan sohalarda band bo'lishi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak [4]. Quyidagi manzilgohlarga shaharcha maqomini berishda asosan aholi soni, ya'ni 2000 va undan ortiq aholiga ega qishloqlar tanlangan. Ammo yangi shaharchalarni barchasini hozirgi davr shaharsozlik talablariga javob beradi, deb bo'lmaydi. Ularning tashqi ko'rinishi qishloq joylaridan uncha katta farq qilmaydi. Shuning uchun sanoat ishlab chiqarishi sust ayrimlarida deyarli rivojlanmagan [2].

Yangi urbanistik siyosat natijasida Jondor tumanida 8 ta yangi shaharchalar vujudga keldi. Yangi shaharchalarda shahar hosil qiluvchi omillar deyarli rivojlanmagan. Ularda tipik sanoat xarakteriga ega korxonalar yo'q. Ammo paxta qabul qilish punkti, g'isht zavodi, tegirmon, tikuvchilik sexi kabilar ishlab turibdi. Aholiga xizmat ko'rsatish obyektlaridan savdo do'konlari, ovqatlanish muassasalari, avtomobillarni ta'mirlash shaxobchasi, kasb-hunar maktabi, maktab va bog'chalar, vrachlik punktlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Yangi shaharchalarni shahar tarkibiga kirishiga ularning geografik o'rni ham muhim rol o'ynagan. Jondordagi yangi shaharchalar ham tumanning turli qismlari uchun ma'muriy markazlar bo'lish bilan birga, Xalqaro ahamiyatidagi (Buxoro – Turkmanobod avtomobil yo'li) transport magistrali yaqinida shakllangan. Shuningdek, ular bilan viloyat markazi hamda tuman markazi Jondor shaharlari o'rtasida doimiy transport qatnovi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari ushbu yangi shaharchalar atrofidagi qishloqlarni shaharlar bilan bog'lovchi tranzit vazifasini bajaradi. Mazkur manzilgohlar qishloq joylari bilan qo'shib ketgan bo'lib, asosan qishloq aholisi uchun xizmat ko'rsatadilar. Ularni shahar joylari



sirasiga kiritishda aholi soni (aholisi 2000 mingdan ortiq), geografik o'rni (markaziy o'rinda joylashganligi), sanoat va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlarini mavjudligi asosiy omil hisoblanadi.

Jondor tumanidagi yangi shaharchalarni iqtisodiy salohiyatini oshirish zarur. Yangi shaharchalarning birgina ijobiy imkoniyati ularga mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq joylarining yaqinligidir. Ana shuni inobatga olib, bunday shaharlarda tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish, kasanachilikni rivojlantirish katta samara beradi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilma tizimini yaxshilash bilan xorijiy sarmoyalar uchun qulay sharoit yaratib berish, ularning sarmoyalari evaziga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan turli xildagi konserva zavodlari va to'qimachilik korxonalari qurish maqsadga muvofiq. Bu esa o'z navbatida aholi bandligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi va ishsizlikning kamayishiga olib keladi.

2009 yil - "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" Davlat dasturiga asosan viloyatda 60 ta qishloqlarga shaharcha maqomi berildi. Ammo ularning barchasini hozirgi davr shaharsozlik talablariga javob beradi, deb bo'lmaydi. Shuningdek, yangi shaharchalarni o'rganish, imkoniyatlarini baholash, ularni tashqi ko'rinishlarini yaxshilash orqali hozirgi zamon shahar talablariga moslashtirish, bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. 2009 yil 13 martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra Jondor tumanidan 8 ta – aholi manzilgohlariga shaharcha maqomi berildi (1-jadval).

1 – jadval. **Jondor tumanining yangi shaharchalari va ularning aholisi haqida**

MA'LUMOT

T/r	Shaharchalar nomi	Aholi soni, kishi
-----	-------------------	-------------------



		01.01.2009	01.01.2013	01.01.2023
	8 ta	19151	21079	24901
1	Bo'ribog'i	2183	2426	2832
2	Dalmun	2250	2447	2795
3	Ko'liyon	2600	2896	3434
4	Samonchuq	3217	3458	4223
5	Tobagar	2385	2594	3046
6	Ushot	2086	2321	2806
7	Chorzona	2275	2518	2928
8	Hazorman	2155	2419	2837

Jadval Jondor tuman statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Hozirgi paytda tumandagi 8 ta shahar manzilgohlariga 21079 kishi yashab, ularda tuman jami aholisining (152,2 ming kishi) 13,8 foizi yashamoqda. Jondor tumanining urbanizatsiya darajasi 19,5 %. Bu jihatdan u viloyatda oxirgi o'rinlardan birida turadi.

Tuman shaharchalarining demografik holati. Jondor tumanlaridagi shahar va shaharchalarning demografik holati quyidaicha:

1. Jondor shaharchasi Buxoro viloyati Jondor tumanining ma'muriy markazi hisoblanadi. Shahar qadimiy tarixga ega bo'lib, 1980-yilda shaharcha maqomini olgan [1]. Aholi soni: 10 101 kishi.



2. Chorzona shaharchasi. Chorzona shaharchasi Jondor tumanining yirik shaharchalaridan biri bo'lib, aholi soni nisbatan yuqori. Mazkur aholi punkti 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 2 928 kishi.
3. Ko'liyon shaharchasi. Ko'liyon shaharchasi Jondor tumanida joylashgan bo'lib, aholisi o'rtacha sonni tashkil etadi. Shaharcha 2009-yilda tashkil etilgan. Aholi soni: 3 434 kishi.
4. Tobagar shaharchasi. Tobagar shaharchasi Jondor tumani tarkibida joylashgan bo'lib, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hudud hisoblanadi. Ushbu manzilgoh 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 3 046 kishi.
5. Samonchuq shaharchasi. Samonchuq shaharchasi Jondor tumanining yirik shaharchalaridan biri bo'lib, aholi soni nisbatan yuqori. Samonchuq 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 4 223 kishi.
6. Bo'ribog'i shaharchasi. Bo'ribog'i shaharchasi Jondor tumanida joylashgan bo'lib, aholisi o'rtacha sonni tashkil etadi. Mazkur aholi punkti 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 2 832 kishiga teng.
7. Dalmun shaharchasi. Dalmun shaharchasi Jondor tumani tarkibida joylashgan bo'lib, yirikroq aholi punkti hisoblanadi. Ushbu shaharcha 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 2 795 kishini tashkil etadi.
8. Ushot shaharchasi. Ushot shaharchasi Jondor tumanida joylashgan bo'lib, aholisi o'rtacha sonni tashkil etadi. Ushot 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 2 806 kishi.
9. Xazorman shaharchasi. Jondor tumani tarkibida joylashgan bo'lib, kichikroq aholi punkti hisoblanadi. Ushbu manzilgoh 2009-yilda shaharcha maqomini olgan. Aholi soni: 2 837 kishi.



Umuman olganda, yangi shaharchalarni o'rganishimiz quyidagicha **xulosa va takliflar** chiqarishga imkon berdi.

- Sanoat ishlab chiqarishi deyarli rivojlanmagan;
- Tashqi ko'rinishi atrofdagi qishloq joylaridan unchalik farq qilmaydi;
- Transport va infratuzilma tizimi rivojlanmagan;
- Aholiga xizmat ko'rsatish darajasi yaxshi emas;
- Ishsizlik muammosi mavjud.

Shu bois, Jondor tumanidagi yangi shaharlarni iqtisodiy salohiyatini oshirish zarur. Mazkur shaharlarning birgina ijobiy imkoniyati ularda mehnat resurslarining ko'pligi, qishloq joylarining yaqinligidir. Ana shuni inobatga olib, bunday shaharchalarda tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish va kasanachilikni rivojlantirish katta samara beradi. Shu bilan birga, mavjud infratuzilma tizimini yaxshilash bilan xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay sharoit yaratib berish, ularning sarmoyalari evaziga qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan turli xildagi konserva zavodlari va to'qimachilik korxonalari qurish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedov E.A. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida. - T., 2002.
2. Mavlonov A.M. Cho'l urbanizatsiyasi. – Buxoro, 2015. - 176 b.
3. Nazarov I.Q., Allayorov I.Sh. Buxoro geografiyasi. – Buxoro, 1994. - 67 b.
4. Soliyev A., Tashtayeva S., Egamberdiyeva M. Shaharlar geografiyasi. – Toshkent, 2018. -190 b.
5. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 12-jild. – Toshkent, 2006. 707 b.